

ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDA 11 DAN 19 GACHA BO‘LGAN SANOQ SONLARNING SANALMISH BILAN SINTAKTIK ALOQASI

Rashidova Amina O‘ktam qizi

O‘zDJTU Sharq filologiyasi 3-kurs talabasi.

rashidovaamina0733@gmail.com

Umurzakova A.U.

Ilmiy rahbar. O‘zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi
va amaliyoti kafedrası o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13865619>

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab va o‘zbek tillaridagi “Son” so‘z turkumiga oid muhim qoidalar; arab tili o‘rganuvchilari uchun ba‘zan qiyinchiliklar tug‘diradigan, murakkab qurilishlardan tashkil topgan jihatlari; ayniqsa, 11 dan 19 gacha bo‘lgan sonlarning sanalmish bilan sintaktik aloqasi; ularning gap tarkibida kelgandagi turlanish holatlari; har ikkala tildagi o‘xshash va farqli jihatlari bir-biriga taqqoslangan holatda turli xil misollar yordamida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: “adad” - son, “ma‘dud”, “tamyiz” - sanalmish, “mufrod” - birlik, “musanna” - ikkilik, “jam” - ko‘plik, “muzakkar” - erkak jinsi, “muannas” - ayol jinsi.

SYNTACTIC CONNECTION OF THE NUMBERS FROM 11 TO 19 WITH THE NOUN IN ARABIC AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. In this article important rules of the word group "Numbers" in Arabic and Uzbek languages; aspects of complex constructions that sometimes cause difficulties for Arabic language learners; especially, the syntactic connection of the numbers from 11 to 19 with the noun; their condition when they appear in the sentence; the similarities and differences of numbers in both languages are compared and studied using various examples.

Key words: “adad” - number/numeral, “ma‘dud”, “tamyiz” - what is being counted, “mufrod” - singular, “musanna” - dual, “jam” - plural, “muzakkar” - male, “muannas” - female.

KIRISH

“Son” predmetning miqdori va tartibini bildiradigan so‘z turkumi hisoblanadi. O‘zbek tilida sonlar alohida so‘z turkumi sifatida o‘rganiladi. Ular asosiy 2 turga bo‘linadi:

1. Miqdor sonlar
2. Tartib sonlar.

Arab tilida esa sonlar mustaqil so‘z turkumi sifatida emas, balki " الاسم " nomli katta turkumning bir bo‘limi sifatida o‘rganiladi. Arab tilidagi sanoq sonlar o‘zbek tiliga odatda “ta”, “dona” deya tarjima qilinadi. Arab tilida son va sanalmish mavzusi jins, son, kelishik, holat kategoriyalari bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi, quyida ular shu jihatlari bilan o‘rganib chiqiladi.

11 dan 19 gacha bo‘lgan sonlar arab tilida murakkab sonlar hisoblanadi. Sababi ular ikki so‘zdan iborat bo‘ladi. Arab tilidagi murakkab sonlar xuddi o‘zbek tilidagi singari birlik va o‘nlik qismdan tashkil topgan bo‘ladi.

o‘n to‘qqiz – تِسْعَةَ عَشَرَ

o‘n bir – أَحَدَ عَشَرَ

11 sonidagi bir so‘zi أحد bilan ifodalanadi. Muannasda esa إحدى shaklidan foydalaniladi.

Bunda sonlar tanvin olmaydi, tushum kelishigida keladi va o'zgarmas birikma shaklida bo'ladi, faqat 12 soni bundan mustasnodir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sonlarning sanalmish bilan sintaktik aloqasiga keladigan bo'lsak, 11 va 12 sonlari o'zidan keyin keladigan sanalmishning jinsi bilan to'laligicha moslashadi. Ma'dud muzakkar bo'lsa, adad ham muzakkar, agar ma'dud muannas bo'lsa, adad ham muannas bo'ladi.

Sanalayotgan ot noaniq holatda, birlikda va tushum kelishigida keladi va bu sanalayotgan ot "tamyiz" deb nomlanadi.

جَاءَ أَحَدٌ عَشَرَ طَالِبًا. – O'n bitta talaba keldi.
جَاءَتْ إِحْدَى عَشْرَةَ طَالِبَةً. – O'n bitta talaba qiz keldi.
جَاءَ اثْنَا عَشَرَ طَالِبًا. – O'n ikkita talaba keldi.
جَاءَتْ اثْنَتَا عَشْرَةَ طَالِبَةً. – O'n ikkita talaba qiz keldi.

Bu sonlar "fatha"ga mabniy hisoblanadi, ya'ni tushum yoki qaratqich kelishigi shaklida ham o'zgarmasdan shu holida qoladi. Faqatgina o'n ikki soni to'liq mabniy emas. Uning birinchi qismi o'zgaruvchan bo'lib, tushum va qaratqich kelishigida اِثْنِي shaklida qo'llaniladi. Bundan kelib chiqadiki, اِثْنَانِ so'zining ra'f holati "alif" bilan, nasb va jar holatlari esa "ya" harfi bilan hosil qilinadi.

جاء اثنا عشر معلماً – O'n ikkita ustoz keldi (ra'f – bosh kelishikda).

Bu misolda son foil, ya'ni ega vazifasida kelmoqda.

رَأَيْتُ اثْنِي عَشَرَ مَعْلَمًا – O'n ikkita ustozni ko'rdim (nasb – tushum kelishigida).

Bu misolda son maf'ulun bihi, ya'ni to'ldiruvchi vazifasida kelmoqda.

سَلَّمْتُ عَلَى اثْنِي عَشَرَ مَعْلَمًا – O'n ikkita ustozga salom berdim (jar holatida).

Bu misolda son majrur bo'lib, ya'ni harfi jordan keyin kelmoqda.

11 va 12 sonlari sanalmish bilan bir xil jinsda kelgan bo'lsa, 13 sonidan boshlab 19 sonigacha esa sonning birlik qismi sanalayotgan otning birlik jinsiga teskari jinsda bo'ladi.

Sonning o'nlik qismi esa jins kategoriyasida sanalayotgan ot bilan moslashadi. Sanalmish noaniq holatda, birlikda va tushum kelishigida keladi. Sanalmish arab grammatikasiga ko'ra "tamyiz" deb ataladi.

o' uchta kitob. – ثلاثَةٌ عَشَرَ كِتَابًا

Ushbu birikmada "kitob" so'zi muzakkar jinsda hisoblanadi va u o'nlik qism bilan moslashgan, birlik qism esa teskari jinsda turibdi.

o' yettita kutubxona. – سَبْعٌ عَشْرَةَ مَكْتَبَةً

Bu birikmada esa "kutubxona" so'zi muannas jinsda hisoblanadi va u o'nlik qism bilan moslashgan, birlik qism esa teskari jinsda turibdi.

Bu holatda sonlar gapning qaysi bo'lagi bo'lishidan qat'iy nazar o'zgarmasdan qoladi, buni misollar yordamida ko'rib chiqamiz:

Muzakkar otlarga misollar:

يُدْرَسُ ثَلَاثَةٌ عَشَرَ طَالِبًا فِي هَذِهِ الْمَجْمُوعَةِ. – Bu guruhda o'n uchta talaba o'qiydi.

رَأَيْتُ سِتَّةَ عَشَرَ طَالِبًا فِي هَذِهِ الْمَجْمُوعَةِ. – Bu guruhda o'n oltita talabani ko'rdim.

مَرَرْتُ بِتِسْعَةِ عَشَرَ طَالِبًا. – O'n to'qizta talabaning yonidan o'tdim.

Muannas otlarga misollar:

تَكْتَبُ أَرْبَعٌ عَشْرَةَ طَالِبَةً. – O'n to'rtta talaba qizlar yozyapti.

قرأت سبع عشرة مجلة في الشهر الماضي – *O'tgan oy o'n yettita gazeta o'qidim.*
سافر أحمد إلى خمس عشرة دولة في العام الماضي – *Ahmad o'tgan yili o'n beshta davlatga sayohat qildi.*

Yuqoridagi oltita gapning har birida son turlicha vazifani bajarmoqda, lekin shakli, kelishigi o'zgarasdan bir xilligicha qolmoqda, bu arab tilidagi sonlarning o'ziga xos qoidasi hisoblanadi.

XULOSA

Yuqorida son haqida o'rganib chiqilgan ma'lumotlarni umumlashtiradigan bo'lsak, arab tili nuqtai nazaridan sonlar o'z gramatik strukturalariga ega bo'lgan keng tarmoqli bo'lim hisoblanadi.

Ularda jins kategoriyasi (muzakkar, muannas), son kategoriyasi (birlik, ikkilik, ko'plik), kelishik kategoriyasi (bosh, tushum, qaratqich kelishigi) va holat kategoriyalari (aniq, noaniq) mavjud. 11 va 12 sonlari o'z sanalmishi bilan bir xil jinsda kelsa, 13 dan 19 gacha bo'lgan sonlar esa sanalmishga nisbatan teskari jinsda ishlatilishi grammatik jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

Albatta, bularni tilning o'ziga xos xususiyatlaridan bir namuna desak mubolag'a bo'lmaydi.

REFERENCES

1. Abdujabborov A. "Arab tili". Darslik. – Toshkent, 2005.
2. Xasanov M., Abzalova M. "Arab tili darslari". O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2009.
3. Ibrohimov N., Yusupov M. "Arab tili grammatikasi". Darslik. – Toshkent, 1997.
4. Xasanov M. "Arab tili". O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
5. Abdulaziz U. "Arab tilidagi sanoq va tartib sonlar". – Toshkent, 2018.
6. Sharq tillari (Arab tili) tili fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma. – Jizzax, 2017.
7. Erkaboyeva N. "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami". – Toshkent, 2016.